

JAMOATCHILIK NAZORATI TUSHUNCHASI TARIXIDAN

Haydarov O.E

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya: *Maqolada jamoatchilik nazorati tushunchasining qo'llanilishi, jahonning turli sivilizatsiyasi vakillarining jamoatchilik nazorati to'g'risidagi fikrlari, hokimiyat va xalqning o'zaro munosabatlarida jamoatchilik nazorati masalalari, jamoatchilik nazoratining kelib chiqish tarixi, tushuncha sifatida qo'llanilishi tarixi, jamoatchilik nazoratining turli talqinlari masalalari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *jamoatchilik nazorati, jamoatchilik nazorati tarixi, ijtimoiy nazorat, jamoatchilik fikri, davlat va jamiyat munosabatlari, hokimiyat va xalqning o'zaro munosabati, jamoatchilik nazorati masalasida G'arb va Sharq mutafakkirlari qarshlari, shaxs xulq-atvori, fuqarolik jamiyati*

Fuqarolik jamiyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan jamoatchilik nazorati o'ziga xos tarixga ega. Dunyoning barcha sivilizatsiyalari tarixida jamoatchilik nazorati turli ko'rinishlarda uchraydi. Jamoatchilik nazorati tarixi qadim zamonlarga borib taqalishini uning ibtidoiy jamiyat davrida ham mavjud bo'lganligidan bilib olish mumkin. Insoniyat tarixining ibtidoiy jamoa tuzumi davrida shaxs xulqini jamoa nazorat qilgan. Agar shaxs xulq-atvorida jamoa tomonidan qabul qilingan me'yorlardan og'ish bo'lsa, jamoa a'zolari turli sanksiyalar yordamida uning xulqini tegishli tomonga o'zgartirgan.

Yurtimizda qadimdan o'zini o'zi boshqarish organi bo'lgan mahalla ajdodlarimiz tarixida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib kelgan. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" kabi tushunchalarning mavjud bo'lishida ham bizda qadimdan mahalla jamoatchilik nazorati funksiyasini ham bajarib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Tarixda aynan jamoatchilik nazorati tushunchasi qo'llanilmagan bo'lsada ushbu tushuncha ifodalaydigan mazmun o'z davrining mutafakkirlari ijodida o'ziga xos shalda o'z ifodasini topgan. Ma'lumki bugungi kunda jamoatchilik nazoratini asosan davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik yuritadigan nazorat shaklida tushunish keng tarqalgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat, davlat faoliyati ustidan jamiyat nazorati zarurligi haqida umumiy tarzdagi dastlabki qarashlar G'arbda Platon, Aristotel, Sitseron, T.Gobbs, J.Lokk, Sh.L.Montyeske, J.J.Russo, G.Gegel, I.Kant, M.Veber kabi mutafakkirlarning qarashlarida, Sharqda esa Abu Nasr Forobiy, A.Temur, A.Navoiy kabi allomalarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Xitoy faylasuflarining qarashlari bo'yicha davlat ishlarida adolat mezonini o'rnatilsa, xalq fikri inobatga olinsagina jamoatchilik nazoratining kurtaklari yuzaga

kelishi mumkin. Lao Szi (mil.av. 579-499 yillar)ning ta'kidlashicha adolatli davlat boshqaruvining barqaror, mustahkam asosi jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi hamda davlat ishlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish orqali hukmdor xalq ishonchini qozonishi mumkinligi keltirib o'tiladi. Uning nuqtai nazari bo'yicha, jamoatchilik nazorati – mamlakatni adolatli boshqarishning asosi hisoblanadi.

Mashhur Xitoy donishmandi Konfutsiy (mil.av. 551-479 yillar)ning ta'limoti bo'yicha jamoatchilik fikri ustun bo'lgan, jamoatchilik nazorati o'rnatilgan davlatni boshqarish, hukmdorga faqat qulaylik va yurt tinchligini saqlab turish imkoniyatini beradi. Faylasufning fikricha podshoh misli bir chavandoz bo'lsa, amaldorlar va qonunlar yugan va jilov, fuqarolar esa otdir. Otni yengil boshqarmoq uchun uni puxta yuganlamoq va jilovni to'g'ri boshqarmoq lozimdir.

Qadimgi yunon faylasufi Platon (mil. av. 427-347 yillar) o'zining "Davlat", "Qonun", "Siyosat" kabi asarlarida jamoatchilik nazoratining ijtimoiy mexanizmini ko'rsatishga harakat qiladi. U "haqiqiy va to'g'ri fikrlay oluvchi faylasuflar davlat tepasiga kelmaguncha yoxud hukmdorlar ilohiy iqtidorlari ila tom ma'nodagi faylasuflik maqomiga ko'tarilmagunlariga qadar insoniyat yovuzlikdan qutulolmaydi" deb, davlat ishlarini yuritishda yoki boshqaruvchi "odil xalq" singari fikrlaydigan darajaga yetmaguncha – davlat ishlarida siljish bo'lmasligini uqtirib o'tadi.

Abu Nasr Forobiy (873-960) jamoatchilik fikri, boshqaruvi hamda nazorati ustuvor bo'lgan jamiyatga erishish uchun boshqaruvchi ham, boshqariluvchi ham jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilishi kerakligini aytib, fuqarolar huquqi ustuvor bo'lgan davlatni qurish uchun jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda bir qancha tamoyillar ustuvor bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) faoliyati va davlatni boshqarish siyosatida jamoatchilik fikriga tayanish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temurning jamoatchilik fikri asosida davlat boshqaruvi va jamiyat barqaror ijtimoiy muvozanatini saqlash borasida jamoatchilik nazoratining zarurati borasidagi amaliy ishlarga, saltanatni boshqarishda jamoatchilik fikri va nazoratiga alohida e'tibor bilan qaragan. Masalan, muntazam tarzda saltanatning viloyat va uluslarida, zabt etilgan mamlakatlarda qurultoy, yig'in va kengashlar o'tkazib turilgan. Bu tadbirlar amir, hokim va beklar tomonidan jamoatchilik fikri asosidagi davlat boshqaruvi silsilasida muhim rol o'ynagan.

Yangi davrda fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo (1712-1778)ning tadqiqotlarida davlat va jamiyat o'rtasidagi nazorat faqatgina o'zaro kelishuv asosida amalga oshishi ta'kidlanadi. Mutafakkirning fikricha "jamiyatda ijtimoiy birlikning shunday shaklini topish kerakki, u har bir a'zoning shaxsi hamda mulkini chegaralash va himoyalashga qodir, uning yordamida ommaga qo'shilgan har bir kishi faqat o'z-o'ziga bo'ysunishi va avvalgidek erkin bo'lib qolishi kerak. Ijtimoiy kelishuv bajaradigan asosiy vazifa ana shundan iborat"³¹.

³¹ Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. – М.: «КАНОН-Пресс», «Кучково поле», 1998

Manbalarni o'rganib shuning guvohi bo'lish mumkinki mualliflar ijtimoiy nazorat va jamoatchilik nazorati tushunchalarini aynan tushunishgan, ular o'rtasidagi farq ochib berilmagan. Bizga ma'lumki ijtimoiy nazorat va jamoatchilik nazorati tushunchalari o'rtasida muayyan farq bo'lib, ijtimoiy nazorat tushunchasi jamoatchilik nazorati tushunchasidan kengroqdir. Jamoatchilik nazorati esa ijtimoiy nazoratning tarkibiga kiradi.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, manbalarda aytilishicha uni ilmiy tushuncha sifatida fanga fransuz sotsiologi va kriminologi, ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan Gabriel Tard (1843-1904) olib kirdi. Gabriel Tard talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan³². Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar Edvard Ross (1866-1951) va Robert Park (1864-1944) tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlarga mos keltirish maqsadida o'tkaziladigan ta'sirni anglatadi.

AQSh davlatchilik tarixida jamoatchilik nazoratiga bo'lgan e'tiborning tizimli rivoji 16-prezident Avraam Linkoln (1809-1865) davrida davlat siyosatida yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Uning "xalq kuchi bilan, xalq irodasi bilan, xalq uchun" kabi so'zlari, amerikacha boshqaruv tarixida jamoatchilik nazorati tizimi uchun shior darajasiga ko'tarildi.

Yana bir mashhur amerikalik olim, sotsiolog Tolkott Parsons (1902-1979) jamoatchilik nazorati sanksiyalar yordamida deviant xulq-atvorga ta'sir o'tkazish orqali uni me'yoriy holatga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hokimiyat xatti-harakatlarini nazorat qilish qadimdan jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib, olimlar qonunga emas, balki zo'ravonlik tahdidiga tayangan nazoratsiz hokimiyatdan xavfliroq narsa yo'q ekanligini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, jamiyatning hokimiyat ustidan nazorat o'rnatishga qodirligi – fuqarolik jamiyatining belgisidir. Faqat huquqiy shaklga ega bo'lgan nazoratgina hokimiyatni huquqqa bo'sundiradi va faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina davlat huquqqa tobe bo'ladi va huquqiy davlat maqomiga ega bo'ladi³³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жалилов А. ва бошқалар. Фуқаролик жамияти асослари. – Т.: Baktria press, 2015.
2. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. – М.: «КАНОН-Пресс», «Кучково поле», 1998

³² Qarang: Фуқаролик жамияти (дарслик лойиҳаси): 2016. Ziyonet.uz.

³³ Жалилов А. ва бошқалар. Фуқаролик жамияти асослари. – Т.: Baktria press, 2015.

3. Фуқаролик жамияти (дарслик лойиҳаси): 2016. Ziyonet.uz.